



ARTICLE INFO

Received: 28th May 2022
Accepted: 02nd June 2022
Online: 05th June 2022

KEY WORDS

Vilgelm fon Simens, egri soliqlar, qo`shilgan qiymat solig`i, byudjet daromadlari, soliq stavkasi, soliq kodeksi, qo`shilgan qiymat solig`i to`lovchilari.

Respublikamizda tub o`zgarishlar, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini izchil isloh etish va liberallashtirish, jamiyatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilish jarayonlari jadal sur`atlar bilan rivojlanib bormoqda. Avvalambor bunda, soliq tizimini yanada takomillashtirish, soliq turlarini hamda ularni hisoblash mexanizmini soddalashtirish yo`lida belgilab olingan va izchil ravishda amalga oshirilayotgan ulkan vazifalar mustahkam zamin yaratmoqda. Mamlakatimizdagi bir qator soliq stavkalari ahamiyatli darajada pasaytirilib borilmoqda.

O`zbekiston Respublikasida soliq tizimini takomillashtirish iqtisodiyotni barqarorlashtirishga va moliyaviy ahvolni mustahkamlashga aloqador qator muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QO`SHILGAN QIYMAT SOLIG`NING BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDA TUTGAN O`RNI VA AHAMIYATI

Nurmatov Nurmuxammad Xolmuratovich

Termiz davlat universiteti iqtisoditot va turizm fakulteti buxgalteriya hisobi yo`nalishi ii kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6626103>

ABSTRACT

Ushbu maqolada egri soliqning iqtisodiy mohiyati va roli muhokama qilinadi, shu bilan bir qatorda qo`shilgan qiymat solig`ining O`zbekiston Respublikasining byudjet daromadlaridagi tutgan o`rni va ahamiyati muhokama qilinadi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida soliqlar islohotlar jarayonining tarkibiy qismi, ichki harakatlantiruvchi omiliga aylandi. Shundan kelib chiqib, soliq tizimi o`ziga xos vazifani to`la darajada bajarishi islohotlar muvaffaqiyatini belgilaydi.

O`zbekiston Respublikasi "Soliq Kodeksi"ni yangi tahriri kuchga kiritilishi soliqlarni hisoblash va to`lash tartiblari belgilab berish bilan qonunchilikka kiritilayotgan o`zgartirishlar soliq yukini yanada kamaytirishga, tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish tizimini soddalashtirish, vijdonli soliq to`lovchilarni, ularning xo`jalik faoliyatiga asossiz aralashishdan himoyalashni kuchaytirish, jinoiy va ma'muriy jazolarni erkinlashtirish, samarali soliq tizimi tamoyillarini yanada to`liq ro`yobga chiqarishga yo`naltirilgan.



Bugungi kunda mamlakatimizning barcha tarmoq korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar iqtisodiy faoliyatini soliqlar vositasida rag'batlantirishga keng e'tibor qaratilgan. Davlat faoliyatini barcha yo'nalishlarini mablag' bilan ta'minlashning asosiy iqtisodiy vositalaridan biri, bu soliqlar hisoblanadi. Davlat budjeti daromadlarini shakllanishida, hamda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda soliqlar juda katta ahamiyatga egadir. Soliqdan tushadigan tushumlar davlat iqtisodiy mustaqilligining asosiy manbai hisoblanib, davlat rivojlanishini ta'minlaydi.

Muhokama va natijalar

Hozirgi vaqtda O'zbekiston va xalqaro soliq amaliyotida bilvosita soliqlarning asosiy turlaridan biri - **qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanadi. Qo'shilgan qiymat solig'i** - har bir ishlab chiqarish bosqichida va realizatsiya jarayonida undiriladigan ko'p qirrali bilvosita soliqdir. Korxonalar kundalik xo'jalik faoliyatida mahsulot yetkazib beruvchilardan tovar va xom-ashyo sotib oladi va ulardan mahsulot ishlab chiqaradi, ishlar bajaradi yoki xizmatlar ko'rsatadi. Demak, qayta ishlab chiqarish, ishlab chiqarish va sotishda qo'shilgan qiymat yaratiladi.

Qo'shilgan qiymat o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan tovarlar, xom-ashyolar va xizmatlarning qiymati o'rtasidagi farqdan iboratdir. Tabiiyki, ishlab-chiqarish jarayonida va keyinchalik mehnat taqsimoti natijasida

ma'lum bir tovar bozorga olib chiqilgunga qadar ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi bir nechta bosqichlardan o'tadi, bu bosqichlarning har birida qo'shilgan qiymat yaratiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini davlat byudjetining daromad qismiga jalb qilish g'oyasi dastlab XX asrning boshlarida yuzaga keldi. Bu taklifni birinchi marta Germaniya byudjet amaliyotida joriy etishni 1919-yilda **Vilgelm fon Simens** ilgari surdi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini amaliyotga joriy etish va undirish mexanizmi birinchi marta fransuz moliyachisi **Morris Lore tomonidan** ishlab chiqildi. Ammo qo'shilgan qiymat solig'i M.Lorening taklifidan so'ng o'tgan 10 yildan ortiq vaqt mobaynida tajriba uchun taklif etilgan shaklda qo'llanildi. Fransiyada qo'shilgan qiymat solig'i 1968-yildan boshlab joriy etildi.

XX asrning 70-yillarida qo'shilgan qiymat solig'i G'arbiy Yevropaning qator mamlakatlarining soliq amaliyotida joriy qilindi. Buning asosiy sababi va huquqiy asosi bo'lib, Yevropa iqtisodiy hamjamiyati tomonidan hamjamiyatga a'zo mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'ini undirishni tartibga solishning huquqiy me'yorlarini umumlashtirish to'g'risidagi maxsus Direktivaning qabul qilinishi hisoblanadi. Mazkur Direktiva 1977-yilda qabul qilindi va unda egri soliqlarning asosiy turi sifatida qo'shilgan qiymat solig'i e'tirof etildi.

O'zbekistonda QQS 1992-yildan buyon amalda. Ushbu soliq oborotdan olinadigan soliq va sotuvdan olinadigan soliq o'rniga aksiz solig'i bilan birgalikda kiritilgan. Bu soliq oborot solig'idan farqli ravishda faqat qo'shilgan qiymatdan undiriladi. Oborot




solig'i esa bir marotaba umumiy oborotdan olinar edi.

O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining daromad manbayi sifatida qo'shilgan qiymat solig'i hozirga qadar o'zining muhim o'rnini va amaliy ahamiyatini saqlab kelmoqda. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda «O'zbekiston

Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida»gi PQ-4086-son qaroriga ko'ra 2019-yilda qo'shilgan qiymat solig'ining davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi salmog'i 35.1 foizni, egri soliqlardagi ulushi esa 76.5 foizni tashkil etgan.

Qo'shilgan qiymat solig'ining davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'i dinamikasi




So'nggi yillarda egri soliqlar sirasiga mansub bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar salmog'i oshib bormoqda. Agar tarixan nazar tashlaydigan bo'lsak, qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi tushish

tendensiyasiga ega bo'lmoqda. Quyidagi jadvalda ushbu soliq stavkasining yillar kesimida o'zgarish dinamikasini ko'rishimiz mumkin.

Davr	QQS stavkalari
1992	30 %
1993-1994	25 %
1995	18 %
1996	17 %
1997	18 %
1998	20 %
01.10.2019	15 %


Qo'shilgan qiymat solig'ining to'lovchilari bo'lib, amaldagi Soliq kodeksining 237-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi va (yoki) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qiluvchi yuridik shaxslar tushuniladi. Jumladan:



Oxirgi ikki yillikda mamlakat miqyosida qo'shilgan qiymat solig'ining davlat byudjetiga tushgan tushumlar miqdori o'sish tendensiyasiga ega. Davlat

byudjetiga tushgan tushumlarda soliqning o'rne beqiyosdir. Quyidagi keltirilgan ma'lumotlar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Soliq turlari bo'yicha 2020-2021 yil 31-dekabr holatiga budjetga tushgan tushumlar (mlrd so'mda)



Xulosa va takliflar

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning natijasi o'laroq, bugungi kunda jamiyatning barcha jabhalarida tub o'zgarishlar yuz bermoqda, shu jumladan soliq tizimida ham. Barchamizga ma'lumki, qo'shilgan qiymat solig'ining stavkasi 15% ni tashkil qiladi, ushbu foiz stavkasi respublikada 2019-yilning oktyabr oyidan beri amal qilinmoqda. Ushbu soliq turi

bo'yicha stavkani tushirish tendensiyasini saqlagan holda, 2023-yil 1-yanvardan qo'shilgan qiymat solig'ining stavkasini 12% ga tushirish rejalashtirilmoqda. Bu islohat ham tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot, ko'rsatilayotgan xizmatlar va bajarilayotgan ishlarning narxini ma'lum miqdorda tushirish imkonini beradi, bu o'z navbatida to'g'ridan-to'g'ri iste'molchilarning manfaatiga xizmat qilishi kerak.

References:

- 1.O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. –T.: “Adolat”, 2019
- Gadoyev E. va boshqalar. Bilvosita soliqlar. O'quv-amaliy qo'llanma. T.: Norma, 2011.
- 2.Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet soliq siyosati: O'quv qo'llanma. T.: Akademya nashr, 2011.
- 3.Jo'rayev A., Safarov G., Meyliyev O. Soliq nazariyasi: O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya. 2019.
- 4.Vahobov A., Jo'rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik. T.: Iqtisod-Moliya. 2019.
- 5.Urazov K.B., Po'latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. T.: Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi. 2020.